

**O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING
ZAMONAVIY YO'LLARI VA ISTIQBOLLARI**

ABUBAKIROVA RUXSORA OZODBEK QIZI

Namangan davlat universiteti

Iqtisodiyot fakulteti

Turizm va mexmondo'stlik yonalishi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20068442>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning bugungi holati, sohadagi mavjud imkoniyatlar va ulardan samarali foydalanish yo'llari tahlil qilinadi. Shuningdek, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va sohaga innovatsiyalarni jalb qilish bo'yicha takliflar keltirilgan.

KALIT SO'ZLAR: Turizm, insratuzilma, xizmat ko'rsatish, raqamli iqtisodiyot, sayyohlik salohiyati, istiqbollari.

АННОТАЦИЯ: В данной статье анализируется текущее состояние развития туристической отрасли в Узбекистане, существующие возможности в данной сфере и пути их эффективного использования. Также представлены предложения по повышению качества обслуживания и внедрению инноваций в отрасль.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Туризм, инфраструктура, обслуживание, цифровая экономика, туристический потенциал, перспективы.

ANNOTATION: This article analyzes the current state of tourism development in Uzbekistan, the existing opportunities in the sector, and ways to use them effectively. It the sector proposals for improving service quality and introducing innovations into the industry.

KEYWORDS: Tourism, infrastructure, service, digital economy, tourism, potential, prospects.

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining eng serdaromad va jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, ko'plab mamlakatlar uchun yalpi ichki mahsulotning asosiy qismini shakllantiruvchi manba hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi o'zining qulay geografik joylashuvi, Buyuk Ipak yo'lining markazida joylashganligi va 7 mingdan ortiq madaniy meros obyektlariga egaligi bilan jahon turizm bozorida o'z o'rniga ega.

So'ngi yillarda mamlakatimizda turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati darajasida muhim qadamlar qo'yildi. Xususan, ko'plab davlatlar uchun viza tartibining bekor qilinishi, transport logistikasining yaxshilanishi va yangi turistik marshrutlarining ishlab chiqilishi soha statistikasida ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqardei. Ushbu maqolaning maqsadi – O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning zaamonaviy usullarini ko'rib chiqish va istiqboldagi rejalarni tahlil qilishdan iborat.

O'zbekiston turizmi faqatgina tarixiy obidalar bilan cheklanib qolmasdan, bir nechta zamonaviy yo'nalishlarda ham yuqori natijalarga erishmoqda. Masalan, ziyorat turizmi, bunda, Islom olamining buyuk mutafakkirlari mangu qo'nim topgan qadamjolarini obodonlashtirish orqali Indoneziya, Malayziya va Turkiya kabi davlatlardan keluvchi sayyohlar oqimi ortmoqda. Bundan tashqari, Chortoq, Bo'stonliq va Zamin kabi hududlarning tabiiy iqlimi, shifobaxsh suvlari va tog'li hududlari ekoturizmni rivojlantirish uchun poydevor bo'lmoqda. O'zbek milliy oshxonasi ham dunyoda eng mashhur yo'nalishlardan biri hamda "Palov sayli" va boshqa milliy taomlar festivallari xorjlik mehmonlarni o'ziga jalb qilmoqda.

MICE yo'nalishi hozirgi kunda dunyoda eng katta daromad keltiruvchi sohalardan biri. U konferensiyalar, seminar va biznes uchrashuvlar turizmidir. O'zbekiston, xususan Toshkent va

Samarqand shaharlari yirik xalqaro sammitlar markaziga aylanmoqda. Ushbu yo'nalish uchun zamonaviy mehmonxonalar, "Convention Center"lar (anjumanlar saroyi) qurilishi nafaqat sayyohlarni, balki yirik investorlarni jalb qiladi. Hozirgi zamon sayyohi hamma narsani smartfon orqali hal qilishni xohlaydi. Bunga VR va AR texnologiyalari mavjud, ya'ni, tarixiy obidalarni (masalan, Samarqanddagi Registonni) virtual ko'zoynaklar orqali qadimiy holatida ko'rish imkoniyatidir. Onlayn navigatsiya va gidlar, bu QR-kodlar orqali yodgorliklar haqida o'z tilida ma'lumot olish hisoblanadi. Elektron to'lovlar, sayyohlar uchun "Apple Pay" yoki "Google Pay" kabi tizimlarning barcha hududlarda (hatto chekka qishloqlarda ham) ishlashi soha jozibadorligini oshiradi.

2030-yilgacha turizm sohasini rivojlantirishning asosiy maqsadlari belgilangan. Masalan:

(a) turizm sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushini amaldagi 3,5 foizdan 7 foizgacha yetkazish;

(b) chet ellik turistlarning yillik sonini amaldagi 10 mln nafardan 20 mln nafargacha yetkazish, shu jumladan, to'lov qobiliyati yuqori bo'lgan turistlar oqimini ko'paytirish;

(v) turizm xizmatlari yillik eksporti hajmini 6 mlrd AQSH dollaridan oshirish;

(g) O'zbekistonning turistik shaharlari o'rtasidagi transport bog'lanishini yaxshilash, ichki aviaqatnovlar sonini ko'paytirish hamda yo'lga sarflanadigan vaqtni kamida 3 baravarga qisqartirish;

(d) 4 va 5 yulduzli mehmonxonalar sonini 2 baravarga oshirish;

(j) turistik xizmatlar va mahsulotlarni diversifikatsiya qilish orqali respublikaning turistik salohiyatini to'liq ishga solish va boshqalar.

Milliy turistik mahsulotlarini jahonda ommalashtirish ishlari ham olib borilmoqda. Bundan tashqari, Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini berdi.

Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlillar turizm tarmog'ini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asosning nomukammalligi, alohida turizm xizmatlarini ko'rsatish qoidalarining, shuningdek chet el fuqarolarining toifalari, bo'lish muddatlari va maqsadlari bo'yicha dunyo amaliyotida keng qo'llaniladigan alohida viza rejimlarining mavjud emasligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 7,4 ming madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlar — "Xiva shahridagi Ichan-qal'a", "Buxoro shahrining tarixiy markazi", "Shahrisabz shahrining tarixiy markazi", "Samarqand shahri" hududida joylashgan bo'lib, YUNESKO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

2010 — 2017-yillar davomida turizm xizmatlari eksporti hajmi ikki baravar oshdi va 2017-yilda 546,9 million AQSh dollari, 2018-yilda esa — 1 041 million AQSh dollarini tashkil etdi. 2016-yilgacha xorijiy tashrif buyuruvchilar sonining o'sish sur'ati o'rtacha yillik 8 foizni, 2017-yilda — 7 foizni tashkil qilib, 2,69 million nafardan oshdi. 2018-yil yakunlari bo'yicha respublikaga 5,3 million xorijiy turistlar tashrif buyurdi. Xususi sektorini qo'llab-quvvatlash va muhofaza qilishga qaratilgan choralar ko'rilgani natijasida, 2015-yilda 398 tani tashkil qilgan turizm tashkilotlari soni 2018-yil yakuni bo'yicha 950 taga, mehmonxona xo'jaliklari soni — 661 tadan 900 taga yetdi.

So‘nggi yillarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha yirik investitsiya loyihalari amalga oshirildi, shu jumladan Toshkent shahrida “Nyatt Regency Tashkent” va “Lotte City Notel Tashkent Palace” brendli mehmonxonalar ochilishi, Andijon, Urganch va Toshkent shahrida madaniy-ko‘ngilochar bog‘larning tashkil etilishi, “Angren-Pop” temir yo‘li ochilishi, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz va Xiva shaharlariga tezyurar poyezdlar uchun elektrlashtirilgan temir yo‘llari ochilishini aytib o‘tish joiz.

Turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o‘rinlarini ko‘paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta‘minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan.

2018-yilda kirib kelayotgan xorijiy turistlar sonini ikki baravarga oshirishning muhim omillari sifatida viza rejimi, O‘zbekistonda bo‘lish qoidalari hamda tadbirkorlik faoliyatini olib borish tartibi soddalashtirilgani, turizm sohasida infratuzilmaning rivojlanishi va turizm salohiyatini targ‘ib qilish choralari ko‘rilgani ko‘rsatish mumkin, shu jumladan:

Qo‘shimcha 9 ta (umumiy 18 ta) davlatga vizasiz rejim joriy etilgani, fuqarolariga kirish vizalarini berishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgan davlatlar soni 12 tadan 50 taga ko‘paygani;

Elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va taqdim etish tizimi ishga tushirilgani, O‘zbekiston hududidan tranzit bilan o‘tayotgan 101 davlat fuqarolariga O‘zbekistonga vizasiz kirish, vaqtincha bo‘lish va fuqarolarni o‘tkazish punktlari orqali chiqib ketish tartibi joriy qilingani;

Xorijiy fuqarolarni respublika hududida vaqtinchalik ro‘yxatga olish tartibi soddalashtirilgani, mazkur tartib “E-MENMON” tizimi orqali to‘liq elektron shaklga o‘tkazilgani;

Va mehmon uylarini sertifikatlash tartibi bekor qilingan.

Turizm sohasida qisqa muddatli istiqbolga mo‘ljallangan maqsadli vazifa va ustuvorlardan kelib chiqib, quyidagi asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlarni faol amalga oshirish ko‘zda tutilgan:

1) turistik faoliyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me‘yor va standartlarni joriy etish, shu jumladan:

turistik faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish, bunda qonunchilik asosini kuchaytirish va turizm sohasida tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlovchi normalarni yagona hujjatga birlashtirishni nazarda tutish;

respublikaga asosiy turistik oqimini ta‘minlovchi, iqtisodiy barqaror va xavfsiz davlatlarning fuqarolari uchun viza rejimini yanada liberallashtirish bo‘yicha bosqichma-bosqich chora-tadbirlarni amalga oshirish;

xususiy sektorni jalb qilish va tadbirkorlar faolligini rag‘batlantirish bo‘yicha manzilli chora-tadbirlarni amalga oshirish, sohani barqaror rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish.

Mamlakat normativ-huquqiy bazasini xalqaro standartlar va me‘yorlar bilan uyg‘unlashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, iqtisodiyotda turizm sohasining rolini oshirish uchun iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, shu jumladan 2025-yilda turizm eksportini 951 mln. AQSh dollaridan 2,2 mlrd. AQSh dollarigacha oshirishni ta‘minlaydi.

Turistlarning ehtiyojlari va talablarini inobatga olgan holda, mamlakatning barcha hududlarida turizm infratuzilmasi va yondosh infratuzilmani rivojlantirish, xususan:

talabni inobatga olgan holda, yangi joylashtirish vositalarini qurish va mavjudlarni rekonstruksiya qilish bilan bir qatorda yondosh infratuzilmani (umumiy ovqatlanish obyektlari, transport-logistika tuzilmalari, ko'ngilochar maskanlar industriyasi, madaniy va sport muassasalari, turistik namoyish obyektlari va boshqalarni) rivojlantirishga qaratilgan turizm industriyasini rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

joylashtirish vositalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, yirik, o'rta, kichik mehmonxonalar va xostellarni qurishni rag'batlantirish hamda mavjud mehmonxonalarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga alohida e'tibor qaratish;

zamonaviy xalqaro standartlarni hisobga olgan holda ko'cha infratuzilmasini (o'tish yo'llari, trotuarlar, kichik arxitektura shakllari, sanitar-gigiyenik shoxobchalar, jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar uchun obodonlashtirish elementlari va boshqalarni), shu jumladan turizm-rekreasion markazlarda yaratish;

turizm navigatsiyasining yagona unifikatsiyalashtirilgan tizimini joriy etish va rivojlantirish, ko'chalarda, hududlarda, turizm namoyishi obyekti hisoblangan bino va inshootlar ichida, transport vositalari va tarmoqlarida hamda avtomobil yo'llarida turizm navigatsiyaning unifikatsiyalashtirilgan ko'rsatkichlarini o'rnatish.

Hozirgi davrda turizm dunyoning juda ko'p mamlakatlarida ommaviy tus olgan va turizmning juda ko'p turlari va shakllari mavjuddir: tarixiy-madaniy turizm, ichki turizm, xalqaro turizm, agrar turizm, qishloq turizm, etno turizm, ziyorat turizm, ekologik turizm, ta'lim turizmi, gastronomik turizm, sport turizm, mice turizm va b.

Butunjahon turizm tashkiloti ma'lumotlarida turizm sohasining rivojlanishi va turistlar oqimining ortishiga dunyodagi demografik va ijtimoiy o'zgarishlar, savdoni rivojlantirish, siyosat, qonunchilik va me'yori-huquqiy hujjatlardagi o'zgarishlar, iqtisodiy va moliyaviy o'zgarishlar, transport infratuzilmasi va axborot ta'minoti sohasining holati, sayohat xavfsizligi kabi omillar ta'sir etishi ko'rsatib o'tilgan. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, turizm sohasini rivojlantirish iqtisodiyotning 40 dan ortiq sohasiga multiplikativ ta'sir ko'rsatadi. Bunda, turizm mamlakat iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Xorijiy turist mamlakatga kelib-ketishi uchun aviachipta xarid qilishi, mehmonxona, transport, ovqatlanish xizmatidan foydalanish, suvenir va boshqa mahsulotlarni xarid qilishi to'g'ridan to'g'ri xizmat ko'rsatuvchilar ham faoliyati uchun mahsulot xarid qiladi va xizmatlardan foydalandi. Turizmning bilvosita ta'sirini joylashtirish vositalarining faoliyati davomida kommunal, bank, transport va boshqa xizmatlarga bo'lgan talabida ko'rinadi (Eshtaev, 2023).

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, bugungi kunda O'zbekistonda turizm sohasi iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida shakllanib bo'ldi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, mamlakatimizning ulkan turistik salohiyatidan samarali foydalanish uchun faqatgina tarixiy obidalariga tayanish yetarli emas. Zamonaviy dunyoda sayyohlarning talablari o'zgarib bormoqda, bu esa sohada yangi innovatsion standartlarni va xizmat ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni taqozo etadi.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning istiqbollari, birinchi navbatda, sohani raqamlashtirish bilan uzviy bog'liqdir. "Smart-turizm" konsepsiyasini kengaytirish, ya'ni sayyohlar uchun barcha xizmatlarni (transport, mehmonxona, gid, to'lovlar) yagona mobil platformalar orqali taqdim etish sohaning shaffofligini va jozibadorligini oshiradi. Shuningdek, turizm yo'nalishlarini diversifikatsiya qilish, xususan, mamlakatimizning chekka hududlarida ekoturizm, agroturizm va ekstremal turizm turlarini rivojlantirish mahalliy aholi bandligini ta'minlashda muhim drayver bo'lib xizmat qiladi.

Sohaning xalqaro standartlarga moslashishi uchun kadrlar tayyorlash tizimini ham tubdan takomillashtirish zarur. Zamonaviy gid-ekskursiyachilar, mehmonxona menejerlari va servis xodimlari nafaqat bir necha xorijiy tillarni bilishi, balki xalqaro muloqot madaniyati va

raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim. Bu borada rivojlangan davlatlar, xususan, Turkiya va Yevropa mamlakatlari tajribasini milliy mentalitetga moslashtirgan holda tatbiq etish ijobiy natija beradi.

O'zbekiston turizm industriyasini rivojlantirishning zamonaviy yo'llari infratuzilmani yaxshilash, xizmat ko'rsatish sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish va sohani innovatsion g'oyalar bilan boyitishdan iboratdir. Davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar va yaratilayotgan keng imkoniyatlar yaqin yillarda mamlakatimizni Markaziy Osiyoning asosiy turistik xabiga aylantirish imkonini beradi. Bu esa milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash va xalqaro maydonda O'zbekiston imidjini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Respublikaga xorijiy turistlar oqimini yanada ko'paytirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-9-son Farmoni. 2024-yil 12-yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Turizm to'g'risida"gi O'RQ-549-son Qonuni (yangi tahriri). 2019-yil 18-iyul.
3. Ibragimov N.S. Turizm bozorini diversifikatsiya qilish: nazariya va amaliyot. Monografiya. – Samarqand: "Ipak yo'li" turizm xalqaro universiteti nashriyoti, 2023. – 160 b.
4. Pardaev M.Q., Mirzayev A.B. Turizm iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. – 240 b.
5. Pardaev M.Q., Mirzayev A.B. Turizm iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. – 240 b.
6. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari. Monografiya. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2021. – 188 b.
7. Statistika agentligi ma'lumotlari. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (tahliliy hisobot). – Toshkent, 2024. – [Elektron resurs]. URL: stat.uz.